



SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLİYAVIY RAG'BATLANTIRISHDA SOLIQLARNING O'RNI

PhD, dots. **Baxriddinov Nodirbek**
Namangan davlat texnika universiteti
ORCID: 0000-0002-3765-5778
nbahriddinov@lincolnucsf.edu

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishda soliq siyosatining o'rni, soliq imtiyozlari va preferensiyalarning investitsiya faolligiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, soliq mexanizmlarining innovatsion rivojlanishga ta'siri statistik va nazariy ma'lumotlar asosida baholandi. Maqolada ikki ta jadval keltirilib, ular asosida tahliliy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, sanoat korxonasi, soliq imtiyozlari, investitsiya, moliyaviy rag'bat, raqamli iqtisodiyot, texnologiyalar.

РОЛЬ НАЛОГОВ В ФИНАНСОВОМ СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

PhD, доц. **Бахриддинов Нодирбек**
Наманганский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье анализируется роль налоговой политики в финансовом стимулировании инновационной деятельности на промышленных предприятиях, а также влияние налоговых льгот и преференций на инвестиционную активность. Кроме того, на основе статистических и теоретических данных оценивается воздействие налоговых механизмов на инновационное развитие. В статье приведены две таблицы, на основе которых сделаны аналитические выводы.

Ключевые слова: инновация, промышленное предприятие, налоговые льготы, инвестиции, финансовое стимулирование, цифровая экономика, технологии.

THE ROLE OF TAXES IN THE FINANCIAL STIMULATION OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISE

PhD, assoc. prof. **Bahriddinov Nodirbek**
Namangan State Technical University

Abstract. This article analyzes the role of tax policy in the financial stimulation of innovative activity at industrial enterprises, as well as the impact of tax incentives and preferences on investment activity. In addition, the influence of tax mechanisms on innovative development is assessed based on statistical and theoretical data. The article presents two tables, on the basis of which analytical conclusions are drawn.

Keywords: innovation, industrial enterprise, tax incentives, investment, financial stimulation, digital economy, technologies.

Kirish.

Hozirgi globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning innovatsion faoliyatiga bog'liqdir. Innovatsiyalarni joriy etish esa sezilarli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu bois, davlat tomonidan soliq mexanizmlari orqali beriladigan rag'batlar muhim ahamiyat kasb etadi (Schumpeter, 1934). Soliq imtiyozlari, preferensiyalar va subsidiyalar korxonalarni ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga ko'proq sarmoya kiritishga undaydi (Druker, 1993).

O'zbekiston Respublikasida ham sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida soliq siyosati takomillashtirilmoqda (Anchishkin, 1986). Ushbu maqolaning maqsadi — soliqlarning innovatsion faoliyatni rag'batlantirishdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot davomida yuqorida ta'kidlangan innovasion faoliyatga oid dastlab keng ma'noda «Innovatsiya» atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Shumpeter (1982) tomonidan 1912 yilda "Iqtisodiy rivojlanish" nazariya asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to'la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo'yicha mutaxassis Druker (1993) innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya'ni "Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo'lib, uning yordamida g'oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir" ishlab chiqdi.

Rus iqtisodchilaridan Anchishkinnin (1986) fikriga ko'ra «innovatsiya», «yangilik kiritish» atamalari faqat texnik-texnologik o'zgarishlar bilan chegaralanishi mumkin emas. U ushbu atamaga keng ijtimoiy ma'no berib, yangiliklarni jamiyatni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqqan va texnik-texnologik yangiliklar muayyan iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqargan holda sotish bozori uchun kurashishga ko'maklashib, raqobat muhitini o'zgartiradi va bu bilan ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi, deydi.

Yana bir ta'rif quyidagicha: «innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni» deb ifodalanadi. Utkin (1996) esa innovatsiya (yangilik kiritish)ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi ob'yekt sifatida ta'riflaydi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari axborot-kommunikatsiya sohasida innovatsiya va innovasion faoliyatni boshqarish hamda yanada takomillashtirish bo'yicha iqtisodchi olimlar Aripov (2005), Kadirov (n.d.), Maxkamova (2006) va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Umuman olganda, keltirib o'tilgan mutaxassis olimlar tomonidan innovatsiya va innovasion faoliyati ustida ish olib borilgan bo'lib, iqtisodiyot real tarmoqlarini innovasion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali boshqarish yo'llari mavzusi doirasida tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq imtiyozlari - bu davlat tomonidan muayyan faoliyat turlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etiladigan yengilliklar bo'lib, ular soliq yukini kamaytirish orqali korxonalar ixtiyorida qo'shimcha mablag'lar qoldirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat sohasida bunday imtiyozlar asosan tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan xarajatlarni ko'paytirishga undaydi.

Masalan, ITTKI xarajatlarini foyda solig'i bazasidan to'liq yoki qisman chegirish imkoniyati korxonalarga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi. Tezlashtirilgan amortizatsiya esa asosiy vositalarni yangilash jarayonini jadallashtirib, ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik darajasini oshiradi.



1-rasm. Soliq imtiyozlarining ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) xarajatlariga ta'siri (shartli indeks)

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Diagrammada soliq imtiyozlari joriy etilishidan oldin va keyin sanoat korxonalarining ITTKI xarajatlari shartli indeks ko'rinishida taqqoslangan. Bazis sifatida imtiyozlardan oldingi daraja 100 birlik deb olingan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, soliq rag'batlari qo'llanilgandan so'ng innovatsion faoliyatga yo'naltiriladigan xarajalar sezilarli darajada oshadi (taxminan 62% ga). Bu holat soliq imtiyozlari korxonalar uchun moliyaviy yukni kamaytirib, ularni tadqiqot va texnologik yangilanishga ko'proq sarmoya kiritishga undashini ko'rsatadi. Shuningdek, bunday rag'batlantirish mexanizmlari uzoq muddatda ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samaradorligi ularning aniq maqsadga yo'naltirilganligi va shaffof mexanizmlar asosida qo'llanilishiga bog'liq. Agar imtiyozlar noto'g'ri yo'naltirilsa yoki nazorat mexanizmlari yetarli bo'lmasa, ular byudjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi, biroq kutilgan innovatsion natijani bermasligi mumkin.

Innovatsion faoliyat bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologiya va boshqaruv usullarini yaratish hamda joriy etishga qaratilgan jarayondir. Uni moliyalashtirishda korxona ichki mablag'lari, bank kreditlari, davlat grantlari va soliq imtiyozlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi (Utkin, 1996). Soliq mexanizmi orqali davlat innovatsion loyihalar uchun qulay muhit yaratishi mumkin.

Xususan, foyda solig'i bo'yicha chegirmalar, amortizatsiya siyosatini tezlashtirish, ilmiy-tadqiqot xarajatlarini soliq bazasidan chiqarib tashlash kabi choralar korxonalar investitsiya faolligini oshiradi (Aripov va Iminov, 2005).

1-jadval

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlari

Manba	Asosiy afzalligi	Cheklovi	Izoh
Ichki mablag'lar	Mustaqillik va tezkorlik	Hajmi cheklangan	Korxona foydasi hisobidan
Bank kreditlari	Katta hajmda jalb etish mumkin	Foiz xarajatlari yuqori	Garov talab etiladi
Davlat grantlari	Qaytarilmaydi	Tanlov asosida beriladi	Raqobat yuqori
Soliq imtiyozlari	Xarajatlarni kamaytiradi	Vaqtinchalik bo'lishi mumkin	Davlat siyosatiga bog'liq

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari orasida soliq imtiyozlari alohida o'rin tutadi. Ular bevosita moliyaviy resurs bermasada, korxonaning soliq yukini kamaytirish orqali erkin mablag'lar hajmini oshiradi. Bu esa innovatsion loyihalarga qo'shimcha sarmoya yo'naltirish imkonini yaratadi (Schumpeter, 1982).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni soliq vositalari orqali rag'batlantirish iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Yaponiya kabi davlatlarda ITTKI uchun soliq kreditlari, grantlar bilan uyg'unlashtirilgan soliq imtiyozlari keng qo'llaniladi.

Bu mamlakatlarda soliq rag'batlari aniq mezonlar asosida berilib, innovatsion natijalarning o'lchab borilishi yo'lga qo'yilgan. Natijada davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash haqiqatan ham yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Milliy amaliyotda ham ushbu tajribalarni inobatga olgan holda, soliq siyosatini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning aniq va shaffof mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Bu sanoat korxonalarining texnologik yangilanishini tezlashtiradi va ularning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

Sanoat korxonalariga soliq imtiyozlarni berilishi ularni innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi, yani birinchi navbatda innovatsion texnologiyalarni xarid qilishga va buning natijasida sifatli va hamyonbop mahsulotlar ishlab chiqarishga erishiladi hamda mahsulot tannarxi ham kamayishiga erishiladi.

2-jadval.

Soliq rag'batlarining innovatsion faollikka ta'siri (shartli baholash)

Ko'rsatkich	Rag'batdan oldin	Rag'batdan keyin	O'zgarish, %
Innovatsion loyihalar soni	10	16	60%
Investitsiya hajmi (mlrd so'm)	50	80	60%
Yangi mahsulot turlari	5	9	80%
Ilmiy-tadqiqot xarajatlari ulushi	3%	5%	+2 foiz punkt

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvalda keltirilgan shartli ma'lumotlar soliq rag'batlari joriy etilgandan so'ng innovatsion faollik sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Xususan, innovatsion loyihalar soni va investitsiya hajmi 60 foizga, yangi mahsulot turlari esa 80 foizga oshgan. Bu holat soliq imtiyozlarining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi (Druker, 1993; Arimov va Iminov, 2005).

Soliq rag'batlarini takomillashtirish uchun, avvalo, ularning samaradorligini baholash tizimini joriy etish zarur. Har bir berilayotgan imtiyozning iqtisodiy natijasi, ya'ni qo'shimcha

yaratilgan qiymat, yangi ish o'rinlari va eksport hajmining o'sishi kabi ko'rsatkichlar asosida baholanib borilishi lozim.

Shuningdek, innovatsion faoliyat subyektlari uchun soliq tartib-taomillarini soddalashtirish, hisobotlarni topshirish jarayonlarini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu korxonalar resurslarini bevosita innovatsion loyihalarga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, soliq rag'batlarini grantlar, subsidiyalar va venchur moliyalashtirish kabi boshqa qo'llab-quvvatlash vositalari bilan uyg'unlashtirish innovatsion ekotizimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda soliq mexanizmlarining o'rni beqiyosdir. To'g'ri yo'naltirilgan soliq siyosati korxonalar investitsiya faolligini oshiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida ham innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi soliq imtiyozlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, soliq mexanizmlarining samarali qo'llanilishi nafaqat yirik sanoat korxonalari, balki kichik va o'rta biznes subyektlarining ham innovatsion jarayonlarga faol jalb etilishiga xizmat qiladi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, shaffofligi va natijadorlikka asoslangan baholash tizimi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Shu sababli soliq siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib borish, xorijiy tajribani inobatga olish va milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish zarur. Soliq imtiyozlarining shaffof va barqaror tizimi tadbirkorlik muhitini yaxshilab, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining oshishiga zamin yaratadi. Natijada, sanoat tarmoqlarining texnologik yangilanishi jadallashib, milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Anchishkin, A. I. (1986) *Nauka - texnika - ekonomika*. M.: *Ekonomika*, 35 s.
- Aripov, A.N. and Iminov, T.K. (2005) *O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiya-lari sohasi menejmenti masalalari: Monografiya*. T.: *Fan va texnologiya*.
- Bahriddinov, N. (2026) 'Financial Stimulation Of Innovative Activities Of Enterprises Through Investments.' *Innovation Science and Technology*, 2(1).
- Бахриддинов, Н. (2021) 'Ўзбекистонда инновацион фаолиятни жадаллаштириш ва солиқлар ёрдамида рағбатлантириш тамойиллари.' *Modern Scientific Challenges And Trends*, 68.
- Druker, P. (1993) *Noviy bizness*. M.: *Ekonomika*.
- Freeman, C. (2019) *The Economics of Industrial Innovation*. MIT Press.
- Hall, B. and Van Reenen, J. (2020) 'How Effective Are Fiscal Incentives for R&D?' *Research Policy*.
- Kadirov, A.M. and Shakirova, K. (n.d.) 'Innovatsionnyy potentsial povysheniye konkurentosposobnosti nacionalnoy ekonomike.' // *Sbor*.
- Maxkamova, M.A. (2006) *Razvitiye i upravleniye innovatsionnoy deyatel'nostyu predpriyatiy*. T.: *ALQACHI NMM*.
- OECD (2022) *Tax Incentives for Research and Development*. OECD Publishing.
- O'zbekiston Respublikasi kodeksi (2023) *Soliq kodeksi*. Toshkent.
- Schumpeter, J. (1934) *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
- Shumpeter, Y. (1982) *Teoriya ekonomicheskogo razvitiya*. M.: *Progress*, 455 s.
- Utkin, E.A. and Morozova, G.I. (1996) *Innovatsionnyy menejment*. M.: *Akalis*, 208 s.
- World Bank (2021) *Innovation and Growth Report*. Washington.